



“RAQAMLI TA'LIM VOSITASIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISH KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH”

Bekkulova Dilfuza Mannonovna,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

E-mail: bekkulovadilfuza13@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada raqamli ta'lim vositalari (e-learning platformalar, mobil ilovalar, elektron kutubxonalar) talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini oshirishda axborotni qidirish, tahlil qilish va qayta ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini individuallashtirish, interfaollikni ta'minlash va talabalarda o'z ustida ishlash motivatsiyasini shakllantirish orqali ularning raqamli savodxonligini yuksaltiradi.

Kalit so'zlar: Multimedia vositalari, videodarslar, kitoblar, maqolalar, internet

Annotation. In the article, digital learning tools (e-learning platforms, mobile applications, electronic libraries) develop information search, analysis and processing skills in increasing students' competence in independent learning. This approach elevates their digital literacy by individualizing the educational process, providing interactivity, and shaping the motivation for students to work on themselves.

Keywords: Multimedia Tools, video cameras, books, articles, internet

Аннотация. В статье говорится, что цифровые образовательные инструменты (электронное обучение платформы, мобильные приложения, электронные библиотеки) развивают навыки поиска, анализа и обработки информации, одновременно повышая компетентность учащихся в самостоятельном обучении. Такой подход повышает их цифровую грамотность за счет индивидуализации образовательного процесса, обеспечения интерактивности и формирования у учащихся мотивации к работе над собой.

Ключевые слова: мультимедийные инструменты, видеоуроки, книги, статьи, интернет

Kirish.

Raqamli vositalar talabalarni passiv qabul qiluvchidan ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, vaqtni boshqarish (time-management) va o'z-o'zini nazorat qilish (self-regulation) kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalar uchun bilim olishga oid yangi imkoniyatlar yaratilayotgan bo'lsada, bu jarayonda bir qator muammolar ham mavjud. Texnik va infratuzilmaviy qiyinchiliklar, raqamli savodxonlikning etishmasligi, motivatsiya bilan bog'liq muammolar, shuningdek, eng maqbul mustaqil ta'limni tashkil etish masalalari talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishga salbiy ta'sir etadi. Tadqiqotlar orqali muammolarni hal qilish uchun echimlar ishlab chiqilmoqda, jumladan, infratuzilmani yaxshilash, talabalarning



raqamli savodxonlikni oshirish, individual yondashuvlarni qo'llash va o'qituvchilarni malaka oshirishi kabi yo'nalishlar o'quv jarayonini raqamlashtirish sharoitida mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishning muhim jihatlaridir. Ta'limni raqamlashtirish va talabalar kompetensiyasini rivojlantirish mavzusi bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda.

Raqamli vositalar orqali mustaqil ta'limni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari: Platformalar va tizimlar: Moodle, Google Classroom kabi LMS tizimlari orqali o'quv materiallari, topshiriqlar va testlarga istalgan vaqtda kirish imkoniyati.

Axborot bilan ishlash: Elektron kutubxonalar va ilmiy bazalardan foydalanish orqali ma'lumotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Interfaol ta'lim: Multimedia vositalari, simulyatsiyalar va videodarslar orqali murakkab mavzularni o'zlashtirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

Shaxsiy o'quv traektoriyasi: Talabalarga o'z o'rganish sur'atini belgilash va qayta aloqa (feedback) olish orqali xatolar ustida ishlash imkonini berish. Xususan, OTM larda talabalarining mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan. Ularda ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayoniga ta'siri, talabalarining raqamli ta'lim sharoitida fanlarni o'zlashtirish qobiliyatlarini oshirish usullari, shuningdek, raqamli texnologiyalar bilan ishlashda yuzaga keladigan muammolar va ularni engib o'tish strategiyalari o'rganilmoqda. Tadqiqotlar tahliliga ko'ra ta'limni raqamlashtirish sharoitida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabalarining mustaqil ta'lim olishini rag'batlantiruvchi yondashuvlardan biridir. F.U. Anarbaeva [1], T. Anderson [2] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar raqamli vositalardan foydalanish talabalarining avtonom o'rganish qobiliyatlarini oshirishini va ularga mustaqil bilim olishda yordam berishini tasdiqlaydi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar mustaqil ta'limni tashkil etish orqali talabalarining bilim olish usullari va o'quv sur'atlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.



O'qitish jarayonida onlayn yoki aralash ta'lim (blended learning) modelidan foydalanish talabalarining mustaqil ta'lim olish qobiliyatlarini oshirishi aniqlandi. Bu model orqali talabalar darslarda bo'lmagan paytda ham mustaqil tarzda o'rganish imkoniga ega bo'ladilar. S. Wainwright [3] va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar aralash ta'limning samaradorligini ko'rsatadi. Tadqiqotlarda talabalar aralash ta'limda nazariy va amaliy bilimlarni mustaqil ravishda yaxshiroq o'zlashtirishi, bu esa ularning umumiy akademik natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ommaviy ochiq onlayn kurslarning ahamiyati esa talabalarni masofaviy o'qitish bo'yicha tadqiqotlarda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. B. T. Skinner [4] va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ommaviy ochiq onlayn kurslarning talabalarni mustaqil ravishda fanlarni o'rganishga jalb qilishdagi o'rni va INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY © intereduglobalstudy.com 2024, ISSUE 8(1) 110 ISSN 2992-9024 (onli imkoniyatlariga qaratilgan. Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida talabalarining bilim olish darajasi va qobiliyatlarini baholash ham ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida turadi. Masalan, G. N.





Bhadri [5] va Drugova E [6] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar talabalarning raqamli platformalaridagi ta'limiy faoliyatini o'rganadi va ushbu tadqiqot talabalarni mustaqil ta'lim olish qobiliyatlariga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladi. Unda talabalar o'z bilimlarini mustaqil o'rganish jarayonida qanday qilib raqamli vositalarni samarali qo'llash imkoniyatlari ochib berilgan. V.N Ivanov [7] ning tadqiqotlari talabalarning raqamli savodxonligi o'quv jarayonida qanday rol o'ynashini ko'rsatadi.

Olib borilgan tadqiqotlar ta'limning raqamlashtirilish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni yaratishi mumkin. Lekin shunday bo'lsada aniq ta'lim yo'nalishlari va kurslari kesimida ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish muammosiga kompleks yondashish dolzarb hisoblanadi. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish muammosiga kompleks yondashish talabalar va o'qituvchilar oldida turgan texnik, pedagogik, metodik, psixologik hamda infratuzilma bilan bog'liq jiharni o'rganishni talab qiladi. Biz bu borada quyidagilarga e'tibor berish foydali deb hisoblaymiz.

Ko'pgina talabalar OTM larda mavjud texnologik infratuzilmadan samarali foydalanish ko'nikmasiga ega emaslar. Shu bilan birga internet tezligilining pastligi yoki uni butunlay etishmasligi talabalarning raqamli ta'lim sharoitida to'laqonli ishtirok etishini muayyan darajada cheklaydi. Bundan tashqari, hozir OTM larda qo'llanilayotgan Hemis platformasiga mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradigan dasturiy vositalarni integratsiya qilish, mustaqil ta'lim olish motivatsiyasi va o'zini-o'zi boshqarish, mustaqil ta'limni tashkil etishning aniq mexanizmlari hali mukammal ishlab chiqilmaganligi va mavjud ishlanmalarni muvofiqlashtirish, xorijiy tajribadan foydalanishdagi til cheklovlari ham muhim muammo hisoblanadi. Ushbu muammolarni kompleks hal qilish uchun avvalo ta'lim infratuzilmasini yanada rivojlantirish, ayniqsa, xususiy kompaniyalar tomonidan ta'lim sohasiga investitsiya kiritilishi, ta'lim, fan, amaliyot formulasini joriy etish muhim hisoblanadi. Raqamli savodxonlikni rivojlantirish uchun talaba va o'qituvchilarni maxsus o'quv kurslariga jalb qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, ta'lim platformalari va vositalaridan foydalanish bo'yicha qo'llanmalar va o'quv dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Talabalar uchun o'quv kurslarida raqamli vositalardan foydalanish bo'yicha qo'llab-quvvatlash xizmati tashkil qilish shular sirasiga kiradi. Talabalar raqamli ta'lim sharoitida o'zlarini boshqarishi va vaqtni to'g'ri taqsimlash qiyinchiliklariga duch keladilar. Onlayn muhitda ularning diqqat-e'tibori chalg'ishi yoki motivatsiyani yo'qotishi mumkin. Mustaqil ta'lim olishni talab qiladigan kurslarda talabalar o'zlarining qiziqishlari va maqsadlarini uzoq muddat davomida saqlab qola olmasligi ko'p kuzatiladi. Bu o'quv jarayonida motivatsiyani qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar ishlab chiqilishi lozim. Masalan, raqamli o'quv dasturlari va platformalarda interaktiv topshiriqlar, gamifikatsiya usullari, o'z-o'zini baholash va progressni kuzatish kabi vositalar talabalarni ta'lim jarayoniga yanada ko'proq jalb qilishga yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchilar tomonidan doimiy rag'batlantirish va nazorat qilish tizimi ham o'quv motivatsiyasini saqlashga yordam beradi.





Raqamlashtirish sharoitida har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlari va ta'lim oluvchilarning individual qobiliyatlariga moslashtirilgan o'quv dasturlari va topshiriqlar to'plamini ishlab chiqish ko'p vaqtni oladi. Bu holat, ayniqsa, butun oqimlar kesimida qaralganda dolzarb bo'lib, u erda shaxsiy yondashuv etishmaydi. Talabalarga moslashuvchan (adaptiv) o'quv dasturlari va topshiriqlar to'plamini yaratish orqali muammoni hal qilish mumkin. Raqamli platformalar talabalar faoliyatini kuzatib, ular uchun individual ta'lim yo'nalishlarini avtomatik ravishda moslashtiruvchi algoritmlar yaratishi lozim. Sun'iy intellekt texnologiyalari bu jarayonni engillashtirishi va har bir talabaning individual ehtiyojlariga mos ta'lim imkoniyatlarini taklif qilishi mumkin. Ayniqsa ba'zi o'qituvchilar (katta yoshdagi, nafaqa yoshidagi) raqamli texnologiyalarni o'quv jarayonida samarali qo'llashga qiynalishi sir emas. O'qituvchilarni raqamli pedagogika usullari bilan tanishtirish, ularni raqamli vositalardan mustaqil ta'limni tashkil etishda foydalanishni qo'llab-quvvatlash juda muhim. Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish o'zaro va o'qituvchi bilan yuzma-yuz muloqotiga ham bog'liq. Bunda sinxron va asinxron o'qitish usullarini uyg'unlashtirish foydali bo'ladi. Onlayn o'quv jarayonlarida talabalar bilan videokonferensiya, vebinarlar va interaktiv forumlar orqali muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytiriladi.

Bundan tashqari, talabalarning faol ishtirokini ta'minlash uchun guruh loyihalari va hamkorlikda o'rganish vazifalari keng qo'llanilishi kerak. Shu bilan birga ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi aspektlarni o'z ichiga oladi: raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish; axborotni tahlil qilish va tanlash; o'z-o'zini boshqarish va vaqtni rejalashtirish; mustaqil ta'limga motivatsiyani saqlash; raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish; kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish; o'z-o'zini baholash va nazorat qilishni tashkillashtirish; hamkorlik va guruhda ishlashni rag'batlantirish. Raqamli muhitda ko'p miqdorda ma'lumot mavjudligi sababli, talabalarning axborotni tahlil qilish, kerakli va ishonchli manbalarni aniqlash qobiliyatlari rivojlanishi mustaqil ta'lim olish jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mustaqil ta'lim olish kompetensiyasi tanqidiy fikrlash, axborotni baholash va eng dolzarb manbalarni tanlash orqali shakllanadi. Shu bilan birga mustaqil ta'limda talaba o'z o'quv jarayonini o'zi boshqarishi, vaqtni to'g'ri taqsimlashi, maqsadlarni belgilash va o'z ishini rejalashtirishi talab etiladi. Masofaviy yoki onlayn ta'limda bu jihatlar ayniqsa muhimdir, chunki darslar va topshiriqlarni bajarish mas'uliyati talabaning o'zida bo'ladi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish o'z-o'zini ta'limga jalb qilish qobiliyati, talabalarning o'z maqsadlari va natijalarga erishishga bo'lgan intilishlarini doimiy ravishda yangilab borish bilan bog'liq. Zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish, masalan, turli ta'lim platformalari bilan ishlash, video ma'ruzalar va testlar o'tkazish, interaktiv topshiriqlarni bajarish uchun texnik ko'nikmalarni rivojlantirish ham talabaning mustaqil o'qish kompetensiyasini oshiradi. Onlayn muhitda esa talabalar o'zaro va o'qituvchilar bilan samarali aloqa o'rnatishi kerak. Forumlar, bloglar, vebinarlar va boshqa





raqamli platformalar orqali fikr almashish, birgalikda loyihalar yaratish va tajriba almashish jarayonida talabalar kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradilar.

Mustaqil ta'lim olish jarayonida o'zini baholash va erishilgan natijalarni tahlil qilish talaba uchun muhimdir. Turli onlayn testlar, avtomatik baholash tizimlari va o'z-o'zini baholash vositalari yordamida talabalar bilim darajasini mustaqil ravishda kuzatib borishi bilish motivatsiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Raqamli ta'limda talabalarning masofadan birgalikda ishlashi, guruh loyihalarida ishtirok etishi, bir-biriga yordam berishi kommunikativ kompetensiyasini oshiradi, chunki talabalar turli muammolarni jamoa bo'lib hal qilishni o'rganadilar. Kompleks yondashuv nuqtai-nazaridan bizning fikrimizcha mustaqil ta'lim olish kompetensiyasi - bu talabaning mustaqil ta'lim olish faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar to'plami bo'lib, mustaqil ta'lim topshiriqlarini to'g'ri anglashi, ma'lumotlarni tahlil qilishi, kreativ fikrlashi va texnologik jihatdan yondashish qobiliyatini o'z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta'lim olish kompetensiyasi zamonaviy hayotda juda muhim, chunki o'z-o'zini rivojlantirish va o'rganish jarayonlari doimiy ravishda o'zgarib boradi. Bizning fikrimizcha mustaqil ta'lim olish kompetensiyasining tarkibiy qismlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: Ma'lumot qidirish va olish: Turli manbalardan (kitoblar, maqolalar, internet) ma'lumotlarni topish va ulardan foydalanish; O'z-o'zini baholash: O'z bilim darajasini aniqlash, kuchli va zaif tomonlarni tahlil qilish.

1.Rejalashtirish: Ta'lim jarayonini rejalashtirish, maqsadlar belgilash va ularga erishish uchun strategiyalar ishlab chiqish.

2. Tashkiliy ko'nikmalar: O'z vaqtini samarali boshqarish, o'qish jarayonini tashkil etish va resurslardan oqilona foydalanish.

3. Motivatsiya va o'zini rag'batlantirish: O'z-o'zini motivatsiya qilish, qiyinchiliklarga qarshi turish va o'rganishni davom ettirish.

4. Tahlil va sintez: Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni o'zlashtirish va yangi fikrlar yoki bilimlar yaratish.

5. Muloqot ko'nikmalari: O'z fikr va g'oyalarini ifodalash, boshqa odamlar bilan fikr almashish va o'z-o'zini taqdim etish.

6. Muammolarni hal qilish: O'z-o'zini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni hal etish strategiyalarini ishlab chiqish. Bu komponentlar mustaqil ta'lim olish jarayonini samarali va maqsadga muvofiq qilish uchun zarurdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida o'qituvchilarning raqamli pedagogika va ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga to'g'ri integratsiya qilishi muhimdir. Raqamlashtirilgan ta'lim jarayoni talabalarning mustaqil ta'lim olish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, shu bilan birga, ularning raqamli va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Anarbaeva F.U., Qoraev A.F. Ta'lim jarayonini raqamlashtirish. Analytical Journal of education and development. Vol. 02 Issue: 07 | Jul-2022 ISSN: 2181-2624. – B. 6-9.
2. Anderson, T. (2008). The theory and practice of online learning. In Athabasca University Press eBooks. <https://doi.org/10.15215/aupress/9781897425084.01>
3. Wainwright, S. (2011). Blended learning in Higher Education: Framework, principles, and guidelines. Journal of Physical Therapy Education, 25(1), 73. <https://doi.org/10.1097/00001416-201110000-00013>
4. Skinner, B. T. (2019). Making the connection: broadband access and online course enrollment at public open admissions institutions. Research in Higher Education, 60(7), 960–999. <https://doi.org/10.1007/s11162-018-9539-6>
5. Bhadri, G. N., & Patil, L. R. (2022). Blended Learning: An effective approach for Online Teaching and Learning. Journal of Engineering Education/Journal of Engineering Education Transformations/Journal of Engineering Education Transformation, 35(is1), 53–60. <https://doi.org/10.16920/jeet/2022/v35is1/22008>
6. Drugova, E., Veledinskaya, S., & Zhuravleva, I. (2021). The Role of Instructional Design in Promoting Digital Pedagogy. Review of the book: Beetham H., Sharpe R. (2020) Rethinking Pedagogy for a Digital Age. Voprosy Obrazovaniya/ Educational Studies Moscow, 4, 333–354. <https://doi.org/10.17323/1814-9545-2021-4-333-354>
7. Ivanov V.N., Ilyina E.A., Kirillov A.A. Setting up a digital learning environment in a pedagogical university // Praxis Educacional. - 2019. – Vol. 15, № 34. – pp. 643.
8. Sa'dullayev, A. (2024). Aspects of forming voluntary qualities in overcoming anxiety in adolescent wrestlers. *News of UzMU Journal*, 1(1.4), 176-179.
9. O'G, A. S. D. A. (2024). MUSOBAQALARDA O 'SMIRLARNING RUHIY HOLATI: PSIXOLOGIK STRESSNI BOSHQARISH. *Interpretation and researches*, 2(21), 193-198.
10. Sa'dullayev, A. (2024). *aspects of forming voluntary qualities in overcoming anxiety in adolescent wrestlers. News of UzMU Journal*, 1 (1.4), 176-179.
11. SA'DULLAYEV, A. (2025). " EXPLORING THE PSYCHOLOGICAL BASIS OF TACTICAL THINKING IN WRESTLERS'ANXIETY REGULATION"(IN THE CASE OF ADOLESCENTS). «ACTA NUUz», 1(1.2), 224-226.
12. Akmal o'g, S. D. A., & Jurayev, B. (2025). PSYCHOLOGICAL RELATIONSHIP BETWEEN PRE-COMPETITIVE ANXIETY AND COPING BEHAVIOR IN ADOLESCENT WRESTLERS. *GLOBAL TRENDS IN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(1), 20-28.